

"O'zavtoyol" DAK boshqaruvining 2015 yil 9 oylik yakunlari bo'yicha yig'ilishi



2015 yilning 22 oktyabr kuni kompaniya boshqaruvining 2015 yil 9 oylik yakunlaribo'yicha kengaytirilgan yig'ilishi bo'lib o'tdi. Yig'ilishda kompaniya tizimidagihududiy bo'linmalar, sohaviy korxonalar va tashkilotlar rahbarlari ishtirok etdi. Yig'ilishniboshqaruv raisi A.Abduvaliev olib bordi.

Yig'ilishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov tomonidan 2015 yilning 16 yanvarida, Vazirlar Mahkamasining yil yakunlariga bag'ishlab o'tkazilgan yig'ilishida belgilab berilgan – O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanish dasturidagi ustuvor yo'nalishlarning kompaniyadagi ijrosimuhokama qilindi. Shuningdek, joriy yilning 9 oyida mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlariga qaratilgan, 2015 yil 19 oktyabrda bo'lib o'tgan Vazirlar Mahkamasi yig'ilishida ko'tarilgan masalalar ham diqqat markazida bo'ldi.

Yig'ilishda ta'kidlanganidek, 2015 yilning 9 oyi davomida umumiy foydalanuvdagi avtomobil yo'llarida tizim korxonalaritomonidan jami 1038,8 mlrd. so'mlik yo'l qurilish, ta'mirlash va saqlash ishlaribajarilgan bo'lib, bu o'tgan 2014 yilning shu davriga nisbatan 132,4% ni tashkiletadi.



Investitsiya dasturiga muvofiq 2015 yilda 141,6 km uzunlikdagi umumiy foydalanuvda bo'lgan avtomobil yo'llarini qurish va rekonstruktsiya qilish ishlari belgilangan. Tuzilgan shartnoma va tasdiqlangan rejaga muvofiq I yarim yillik yakunlari bo'yicha 375,6 mlrd. so'mlik yo'l ishlaribajarilib, 93,7 km uzunlikdagi avtomobil yo'llari rekonstruktsiya qilindi.

Xalqaro, davlat va mahalliy ahamiyatdagi umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarida hamda shahar ko'chalarida "O'zavtoyol" kompaniyasi korxonasi va tashkilotlari tomonidan yo'llarni mukammal ta'mirlashda 135,6 mlrd. so'mlik ishlar amalga oshirilib, 63,3 km uzunlikdagi umumiy foydalanuvdagi avtomobil yo'llari ta'mirlandi.

42654 km uzunlikdagi umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini saqlash va joriy ta'mirlash ishlari bo'yicha 2015 yilning 9 oyida 431,7 mlrd. so'mlik mablag'lar o'zlashtirildi.

Hisobot davri mobaynida tizim korxonasi va tashkilotlarida 205 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.



Yig'ilish davomida tizimdagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, sohaga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, ijro intizomiga qat'iy rioya etish kabi masalalarga tanqidiy yondashilib, muammolarni ijobiy hal etish yo'llari muhokama qilindi.

Boshqaruv yig'ilishi yakunida kuntartibdagi ko'rilgan masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilindi.

"O'zavtoyol" DAK matbuot xizmati